

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№10

2025
oktyabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX
INTERNATIONAL
COPERNICUS

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

*Elektron nashr, 556 sahifa.
2025-yil, 25-oktyabr,*

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

JAHON MOLIYA TIZIMIDA “YASHIL” MOLIYALASHTIRISHNI RIVOJLANISHINING MUAMMOLARI VA SHARTLARI	12
Quliyev Begimqul Melikovich	
EKOLOGIK MIGRANTSIYANI MINTAQAVIY MIQYOSDA MUVOFIQLASHTIRISHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI	18
Bahtiyor Ismoilov Ulug‘bek o‘g‘li, Kadirova Zulayxo Abduxalimovna	
O‘ZBEKISTONDA BANK XIZMATLARINI RAQAMLASHTIRISH HOLATI	25
Davletova Nilufar Tulanovna	
EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHDA MINTAQANI IQTISODIY RIVOJLANISHIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI	30
Qodirov Farrux Ergash o‘g‘li	
SUV RESURSLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING XORIJ TAJRIBASI	37
Kadixodjayeva Nilufar Raxmatullayevna	
MAHALLIY XOMASHYO BAZASIDAN FOYDALANISH ORQALI ISHLAB CHIQUARISH XARAJATLARINI KAMAYTIRISH YO‘LLARI	46
Sultanov Dilshod Normamatovich	
IQTISODIYOTI RIVOJLANGAN DAVLATLARDA INSON KAPITALIGA INVESTITSİYALARNI JALB QILISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	50
Akhmadaliyeva Nikholakhon	
O‘QITUVCHILAR VA TALABALAR UCHUN INNOVATSION TA’LIM DASTURLARINI ISHLAB CHIQUISHDA XALQARO STANDARTLARGA MOSLASHUV MEXANIZMLARI	62
Yuldashev Iskandar Bahromovich	
YER QA’RIDAN FOYDALANGANLIK UCHUN SOLIQLARNING ILMIY-TADQIQOTLAR SHARHI	68
Zoxidov Ismatjon Yunusjon o‘g‘li	
RESPUBLIKA IQTISODIY TARAQQIYOTIDA OLIY TA’LIMNI MODERNIZATSIYA QILISH VA INVESTITSIYA JOZIBADORLIGINING O‘RNI	74
Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich	
DAVLAT IQTISODIY XAVFSIZLIGINI MUSTAHKAMLASHDA SIYOSIY INSTITUTLARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH STRATEGIYALARI	80
O. Nurmuradov	
ICHKI AUDIT SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEZONLARI VA BUXGALTERIYA MA’LUMOTLARINING ICHKI AUDIT JARAYONIDA EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHNING AHAMIYATI	85
Xamidov Javoxir Shavkat o‘g‘li, Muxitdinov Shoxijaxon Xudoyor o‘g‘li	
XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB ETISHNING MOLIYAVIY MEXANIZMLARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	90
Xuramov Zafar Rajabaliyevich	
KORPORATIV TUZILMALARDA INVESTITSION JOZIBADORLIKNI TA’MINLASHNING AHOLI DAROMADLARINI OSHIRISHDAGI ROLI	95
Qurbonov Javlonbek Jurabekovich, Raxmatov Faxriddin Xasanovich	
GLOBAL RIVOJLANISH JARAYONIDA SUG‘URTA XIZMATLARINI ISLOH QILISH MASALALARI	99
Xushmuradov Oman, Ismoilov Sherzod Ismoil o‘g‘li	



DORIVOR O'SIMLIKLARNI QAYTA ISHLASHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	103
Usmonov Mirg'ulom Xoshim o'g'li	
BARQAROR IQTISODIY O'SISHGA ERISHISHDA SUN'IY INTELLEKT TIZIMLARINI QO'LLASH METODOLOGIYASINING AHAMIYATI	109
Nasrulloev Hayotjon Xabibulloevich	
НЕЙРОИНТУИТИВНЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ КАК ФАКТОР КОНКУРЕНТНОГО ПРЕИМУЩЕСТВА НА РЫНКЕ ТРУДА	115
Ягудин Дмитрий Рустамович	
RESURSLARNI SOLIQQA TORTISHGA OID TADQIQOTLARNING NAZARIY TAHLILI	123
Nasimdjanoov Yunusjon Zoxidovich	
SOLIQ TO'LOVCHILAR FAOLIYATINI MUVOFIQLASHTIRISH: XULQ-ATVOR IQTISODIYOTI VA PROGRESSIV TARIFLARNI LOYIHALASH	129
Abduraimova Nigora Abdugapparovna	
DAVLAT RAQAMLI LOYIHALARI: UZINFOCOMNING TA'LIM TIZIMI VA IQTISODIY SAMARADORLIKKA QO'SHGAN HISSASI	134
Raxmatxo'jayev Axrorxo'ja Akmal o'g'li	
РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ПАСПОРТОВ В ПРОМЫШЛЕННОЙ ЭКОНОМИКЕ И ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ	140
Мансурова Сайёра Бахтияровна	
BANK XIZMATLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	148
Xolikova Oydin Olimjonovna	
PNEVMOMEXANIK YIGIRISH TEXNOLOGIYASI XUSUSIYATLARI	153
Jumaniyazov Kadam, Salimov Shuhrat Halimovich, Nazarov Ramazon Anvarovich	
GREEN INDUSTRY AND THE ECONOMY OF ENVIRONMENTALLY FRIENDLY CONSTRUCTION: INTERNATIONAL EXPERIENCE AND UZBEKISTAN'S OPPORTUNITIES	158
Mansurova Sayyora Bakhtiyor kizi	
TELEKOMMUNIKATSIYA SOHASINI RIVOJLANTIRISH TAHLILI	166
Suyunov Asror Baxtiyorovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA LOGISTIKA XIZMATLARINING MIKRO VA MAKRO TUZILMALARI, ULARNING FUNKSIONAL METADOLOGIK TAMOIYILLARI	171
Z.Teshayev	
O'ZBEKISTONDA DAVLAT ULUSHI MAVJUD KORXONALARNI BOSHQARISHDA XORIJIY TAJRIBADAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	176
Ismailov Allayor Rashidovich	
MAHSULOT TANNARXINI ANIQLASHDA ISHLAB CHIQRISH XARJATLARINI OG'ISHISHLARI VA ULARNI TAQSIMLASH	183
Raxmatov Baxriddin Baxtiyor o'g'li	
ПОВЫШЕНИЕ СТОИМОСТИ СПОРТИВНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ И ОБЪЕКТОВ НА ОСНОВЕ АУТСОРСИНГА	186
Исмагулова Гульмира Нуралиевна	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY KONSEPSIYASI	193
Xaitov Oxunjon Nomoz o'g'li	
O'ZBEKISTON SHAROITIDA XIZMATLAR SIFATINI OSHIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING INSTITUTSIONAL VA TASHKILIY MEXANIZMLARI	198
Xudoyorov Lochinbek Bahromovich	
TIJORAT BANKLARIDA UZOQ MUDDATLI RESURSLARNI JALB QILISHDA XALQARO TAJRIBA	203
Abduraxmonov Akmal Nurmamat o'g'li	



MEHNATGA LAYOQATLI TRANSPORT SOHASIDAGI AHOLINI ISH O'RINLARI BILAN TA'MINLANGANLIK HOLATINI TAHLILI	207
Abdullayeva Nigora Shamsiddinovna	
TO'QIMACHILIK SOHASINI BARQAROR RIVOJLANTIRISH MODELI	212
Madraximova Gulasal Ro'zimboy qizi	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT PORTFELI DIVERSIFIKATSIYASI VA GAROV TA'MINOTI SIFATINING BANK BARQARORLIGIGA TA'SIRI	220
Xolbozorov Husniddin Norbek o'g'li	
O'ZBEKISTON - 2030 STRATEGIYASI DOIRASIDA TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BOSHQARISH: MUAMMOLAR VA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	226
Norova Nozima Nabiyevna	
UY-JOY KOMMUNAL XIZMATLARNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING KLASSTERLI MEXANIZMI TAHLILI	232
Odambayev Oybek Ravshanbek o'g'li	
KORPORATIV BOSHQARUV TUZILMALARIDA MOLIVAVIY MUNOSABATLARNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	236
Qurbaniyazov Shaxzodbek Karimovich	
XALQARO SAVDONING RIVOJLANISHI VA ZAMONAVIY TENDENSIYALARI	242
Jalolov Bekzod Sherzod o'g'li	
TA'LIM TIZIMINI MOLIVALASHTIRISHNING YANGI TIZIMINI JORIY ETISHGA QARATILGAN NAZARIY JIHATLAR	247
Dusanov Salim Mamarasulovich	
O'ZBEKISTONDA BUDJET TUSHUMLARINI OSHIRISHDA BOJXONA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	254
Aktamov Akbarjon Aslan o'g'li	
DAVLAT TA'LIM TASHKILOTLARIDA QURILISH XARAJATLARI HISOBINI YURITISH	262
Ostonokulov Azamat Abduraimovich	
РАЗРАБОТКА ОРГАНИЗАЦИОННЫХ МОДЕЛЕЙ ИНТЕГРАЦИИ КРЕАТИВНЫХ ИНДУСТРИЙ В ТУРИСТИЧЕСКУЮ ИНФРАСТРУКТУРУ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН	273
Хошимова Камилла Навфал қизи	
A NEW STAGE IN THE APPLICATION OF MARKET MECHANISMS TO ENTREPRENEURIAL ACTIVITY	285
Ibrayim Maxkamov	
RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISH ORQALI SOG'LIQNI SAQLASH XIZMATLARINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH USULLARI	291
Eshbekova Xayriniso Baxtiyorovna	
QASHQADARYO VILOYATI IQTISODIYOTIDA DXSH ASOSIDA INVESTITSIYA MUHITINING SHAKLLANISHI	297
Hamroyev G'ayratjon Sultonovich	
TURIZM XIZMATLARI BOZORIDA MIJOZLAR EHTIYOJLARINI O'RGANISH VA TAHLIL QILISH	301
Shaymanov To'liqin Mahmayusupovich	
ПРИМЕНЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И ЦИФРОВЫХ ПОДХОДОВ В НАЛОГОВОМ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВЕ	306
Элбаева Мукаддас Рашидовна	
СИНТЕЗ НЕЧЕТКОЙ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ ТЕПЛОЭНЕРГЕТИЧЕСКИХ ОБЪЕКТОВ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ	311
Бахриева Хуршида Аскарходжаевна, Сафаров Шохрух Шарофович, Бахрамов Муҳаммадали Ералиевичасистент	
ШАНХАЙСКАЯ ОРГАНИЗАЦИЯ СОТРУДНИЧЕСТВА КАК КАТАЛИЗАТОР ДОСТИЖЕНИЯ СТРАТЕГИЧЕСКИХ ЦЕЛЕЙ РАЗВИТИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	319
Базарова Гулнора Гуламовна	



O'ZBEKISTON KORXONALARINING TASHQI IQTISODIY FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISHDA BANK KREDITLASH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	323
Pulatova Moxira Baxtiyorovna	
QUESTIONS ABOUT THE STUDY OF PERFORMANCE AND EFFICIENCY OF APPLICATION OF LOADING AND EXTRACTING EQUIPMENT	327
Azamat Umirzokov	
MATOLARNING HAVO O'TKAZUVCHANLIGI KORRELATSION TAHLILI	334
Ismailov Nurulla Tuychibayevich	
O'ZBEKISTONDA QISHLOQ XO'JALIGI RISKLARINI SUG'URTALASHNING AFZALLIKLARI	339
Mamadjanov Shuxrat Jalolidinovich	
IKKI QATLAMLI ARALASH TOLA TARKIBLI TRIKOTAJ TO'QIMASINI OLIISH USULI	343
Usnatdinova Elmira Faxratdinovna, Mirusmanov Baxtiyor, Abdurahimova Fazilat Abdullayevna	
MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARIDA ENG ILG'OR TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA QAROR QABUL QILISH JARAYONLARINING OPTIMALLASHTIRISH YO'LLARI	347
Axmedov Farxod Raxmonjonovich	
IMPACT OF FOREIGN INVESTMENTS ON THE ECONOMY OF UZBEKISTAN: CROSS-SECTORAL ANALYSIS	354
Jumayeva Kamola Azimjonovna, Khasanova Iroda Azizbek kizi	
KORXONA INVESTITSION FAOLLIGINI TA'MINLASHNING NAZARIY-USLUBIY MASALALARI XUSUSIDA	362
Ilyasova Barno Axmadovna	
MILLIY IQTISODIYOTGA XORIJIY INVESTITSİYALARNI O'ZLASHTIRISHNING AMALDAGI HOLATI TAHLILI	371
G'afurov Sherzod Abduvaxob o'g'li	
EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISH ASOSIDA BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	378
Raximov Eshmurod Normuradovich	
O'ZBEKISTONDA BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHDA EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISH YO'NALISHLARI	385
Berdivaliyeva Madina Komiljon qizi	
SANOAT KORXONALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING ZAMONAVIY KONSEPTUAL MEKANIZMLARI	392
Jalolov Abbosxon Ravshanxon o'g'li	
TEPKI UZELI KONSTRUKTIV XOSSALARI TAHLILI	398
Bozorova Farida Maxmudjonovna	
НЕОБХОДИМОСТЬ ОБЪЕДИНЕНИЯ АКЦИЗНОГО НАЛОГА НА НЕФТЕПРОДУКТЫ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	405
Пулатов Дилшод Хақбердиевич, Маматкулов Салимжон Рахмонкулович, Хужамурадов Аброрбек Рўзимурат ўғли, Воронин Сергей Александрович, Абдиев Мансур Мусурмонович	
OLIY TA'LIMGA INVESTITSIYA SIYOSATI: IQTISODIY TAHLIL VA ISTIQBOLLAR	410
Talapova Nargiza Baxriddinovna	
INNOVATIVE DEVELOPMENT OF THE SERVICE NETWORK	416
Bahriddinov Nodirbek Zamirdinovich	
YANGI O'ZBEKISTON INVESTITSION MUHIT VA UNGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI	421
Tirkashev Farruxjon Xolyigitovich	
МНОГОМЕРНАЯ БЕДНОСТЬ И УСТОЙЧИВОЕ РАЗВИТИЕ: ОЦЕНКА ЧЕРЕЗ РАМКУ MPI	426
Мамаризоев Жахонгир Исохонович	
ОЦЕНКА И ОПТИМИЗАЦИЯ ВЛИЯНИЯ МАКРОЭКОНОМИЧЕСКИХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ НА ОБЕСПЕЧЕНИЕ СТАБИЛЬНОСТИ НАЦИОНАЛЬНОГО ОБМЕННОГО КУРСА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	430
Норбаева Мухлиса Акрам кизи	



RAQAMLI TO'LOVLAR ASOSLARI VA XAVFSIZLIGI	440
Yaqubov Azizbek G'anibekovich	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA LOGISTIKA XIZMATLARINI BOSHQARISHNING INNOVATSION USULLARI	444
Xomidov Xojakbar Adxamovich	
SOLIQ SIYOSATI ORQALI INKLYUZIV IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASH MEXANIZMLARI.....	449
Saydakbarova Madinaxon Anisbekovna	
O'ZBEKISTONDA STARTAP EKOTIZIMINING SHAKLLANISHI VA BARQAROR RIVOJLANISHI YO'LLARI.....	454
Suleymanova Shoir Alavxanovna	
MILLIY IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA TASHQI IQTISODIY FAOLIYATNING O'RNI	459
Alimova Dilfuzaxon Rustam qizi	
MEHNAT BOZORINI OPTIMALLASHTIRISHNING MAKROIQTISODIY BARQARORLIKKA TA'SIRI	464
Botirova Sarvinoz Bobir qizi	
QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA KORPORATIV BOSHQARUVNI TASHKIY-IQTISODIY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI.....	469
Qurboniyazov Shaxzodbek Karimovich	
INVESTITSIYA FAOLIYATINI MUQOBIL MOLIYALASHTIRISH USULLARINING MANBALARINI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI	474
Boboqulov Akmal Muborakbekovich	
RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARINING MOHIYATI VA TURLARI.....	482
Zufarov Akmal Gulamiddinovich	
FISKAL BOSHQARUV SAMARADORLIGINI TA'MINLASHDA SOLIQQA TORTISHNING TARTIBGA SOLISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	491
Sulaymonov Farrux Shuxratovich	
ИНДЕКС ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ КАК ИНСТРУМЕНТ МОНИТОРИНГА УРОВНЯ ЖИЗНИ НАСЕЛЕНИЯ	496
Хазраткулова Лола Нармуминовна	
BANK MAJBURIYATLARI VA AKTIVLARINING VAQTINCHALIK NOMUTANOSIBLIK LARI RISKINI KAMAYTIRISH	502
Ibrohimov D.M.	
O'ZBEKISTON RAQAMLI PLATFORMALARI FAOLIYATIDA RAQOBAT SIYOSATINING ZAMONAVIY MUAMMOLARI VA YECHIMLARI.....	507
Saparov Islom O'lmasovich	
RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISHDA MARKETING YONDASHUVLARINING QISHLOQ XO'JALIGIGA TATBIQI	514
Abdikarimova Zilola Baxramovna	
TIJORAT BANKLARI KAPITALI TARKIBIDA DAROMAD MANBALARINING ULUSHI VA KAPITALLASHUV JARAYONIDAGI O'RNI	520
Tursunov Mustafo Mirzayevich	
AHOLINI IJTIMOIIY HIMOYA QILISH TIZIMIDA INSTITUSIONAL HAMKORLIKNING O'ZIGA XOS JIHATLARI TAHLILI	524
Abdullayeva Sayyora Aleksandrovna	
O'ZBEKISTON BANK TIZIMIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING IQTISODIY SAMARADORLIGI	528
Bobojonova Sevara Baxrombek qizi	
MINTAQA SANOATI RAQAMLI XIZMATLAR BOZORIDA TIJORATLASHTIRISHNI "SMART" MODEL I	533
Norov Murodjon Maxmudovich	



TOMORQADAN SAMARALI FOYDALANISH- KAMBAG'ALLIK MUAMMOSINI YUMSHATISHNING MUHIM OMILI	539
Xamidjon Shaxobov	
SUG'URTA KORXONALARIDA REZERVLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH	544
Najimova Nigora	
TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTINI RIVOJLANTIRISHDA XITOY BOZORINING O'RNII	549
Mardanov Aziz Yusupovich	



TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTINI RIVOJLANTIRISHDA XITOIY BOZORINING O'RNI

Mardanov Aziz Yusupovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Mustaqil tadqiqotchi

E-mail: mardanov.aziz@mail.ru

ORCID: 0009-0001-7998-5302

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston to'qimachilik mahsulotlari eksportini rivojlantirish jarayonida Xitoy bozorining o'rni va ahamiyati ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalarning hozirgi holati, to'qimachilik sanoatining eksport salohiyati hamda bu sohada mavjud imkoniyatlar statistik ma'lumotlar asosida o'rganilgan.

Maqolada O'zbekiston to'qimachilik tarmog'ining raqobatbardoshligini oshirish, ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish, klaster tizimi va qo'shma korxonalarni rivojlantirish orqali eksport geografiyasini kengaytirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Shuningdek, Xitoyning ilg'or tajribasi asosida milliy ishlab chiqarish tarmog'ini raqamli transformatsiya qilish, eksport jarayonlariga innovatsion yondashuvlarni joriy etish masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: to'qimachilik sanoati, eksport, Xitoy bozori, iqtisodiy hamkorlik, klaster tizimi, raqamli transformatsiya, innovatsion rivojlanish.

Abstract. This article scientifically analyzes the role and importance of the Chinese market in the development of Uzbek textile exports. The study examines the current state of trade and economic relations between Uzbekistan and China, the export potential of the textile industry, and the opportunities available in this area based on statistical data. The article develops proposals and recommendations on increasing the competitiveness of the Uzbek textile industry, modernizing production processes, expanding the geography of exports through the development of a cluster system and joint ventures. It also covers the issues of digital transformation of the national production network, and introducing innovative approaches to export processes based on China's advanced experience.

Keywords: textile industry, export, Chinese market, economic cooperation, cluster system, digital transformation, innovative development.

Аннотация. В статье научно проанализированы роль и значение китайского рынка в развитии экспорта узбекской текстильной продукции. В исследовании на основе статистических данных рассмотрено современное состояние торгово-экономических отношений между Узбекистаном и Китаем, экспортный потенциал текстильной промышленности и возможности в этой сфере. В статье разработаны предложения и рекомендации по повышению конкурентоспособности узбекской текстильной промышленности, модернизации производственных процессов, расширению географии экспорта за счет развития кластерной системы и создания совместных предприятий. Также рассмотрены вопросы цифровой трансформации национальной производственной сети, внедрения инновационных подходов в экспортные процессы на основе передового опыта Китая.

Ключевые слова: текстильная промышленность, экспорт, китайский рынок, экономическое сотрудничество, кластерная система, цифровая трансформация, инновационное развитие.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining eksport salohiyatini oshirish, sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilish va global raqobatbardoshlikni kuchaytirish masalalari mamlakatning uzoq muddatli rivojlanish strategiyasida ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan¹. Shu jarayonda to'qimachilik sanoati yetakchi tarmoqlardan biri bo'lib, mamlakat yalpi ichki mahsulotining 10 foizdan ortig'ini, sanoat ishlab chiqarishining esa qariyb 20 foizini tashkil etmoqda².

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF–60-son Farmoni, 2022-yil 28-yanvar.

2 O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma'lumotlari, 2024-yil.

O'zbekiston so'nggi yillarda to'qimachilik tarmog'ini rivojlantirishda klaster tizimini joriy etish, xomashyodan tayyor mahsulot ishlab chiqarish ulushini oshirish, eksport yo'nalishlarini diversifikatsiya qilish borasida sezilarli yutuqlarga erishdi. Biroq, eksport geografiyasi asosan MDH mamlakatlari va ayrim Yevropa bozorlariga qaratilgan bo'lib, Osiyo, xususan Xitoy bozorining salohiyati yetarlicha to'liq o'zlashtirilmagan³.

Xitoy Xalq Respublikasi bugungi kunda jahon to'qimachilik mahsulotlari importining eng yirik bozorlaridan biri hisoblanadi. Xitoyda yildan-yilga ichki talabning ortib borishi, yuqori sifatli tabiiy paxta mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojning kuchayishi, ekologik toza va sertifikatlangan to'qimachilik mahsulotlariga talabning o'sishi O'zbekiston uchun yangi eksport imkoniyatlarini ochmoqda⁴. Shu nuqtai nazardan, Xitoy bozorining o'ziga xos mexanizmlarini, davlat siyosatini va biznes modeli tajribalarini o'rganish dolzarb ilmiy masaladir.

O'zbekiston–Xitoy iqtisodiy hamkorligi oxirgi yillarda yangi bosqichga ko'tarilib, ikki davlat o'rtasida to'qimachilik sohasida qo'shma korxonalar tashkil etilmoqda. 2024-yil sentyabr oyida o'tkazilgan "O'zbekiston–Xitoy biznes forumi" doirasida 500 million AQSh dollaridan ortiq qiymatdagi to'qimachilik loyihalari bo'yicha shartnomalar imzolandi⁵ [5]. Bu esa ikki tomonlama hamkorlikni chuqurlashtirish va eksport hajmini ko'paytirish istiqbollari yanada mustahkamladi.

Shunday qilib, mazkur tadqiqotning dolzarbligi O'zbekiston to'qimachilik sanoatini eksportga yo'naltirilgan raqamli model asosida rivojlantirish, Xitoy bozorining imkoniyatlaridan samarali foydalanish va ushbu yo'nalishda mavjud muammolarni hal etish zarurati bilan belgilanadi. Tadqiqot natijalari sanoat iqtisodiyotining nazariy va amaliy asoslarini boyitadi hamda milliy eksport siyosatini takomillashtirishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

O'zbekiston iqtisodiyotining eksport salohiyatini oshirishda to'qimachilik sanoati muhim strategik tarmoq sifatida e'tirof etilib, bu borada mahalliy olimlar tomonidan bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. So'nggi yillarda ushbu yo'nalish O'zbekistonning sanoat siyosati, eksport strategiyasi va xalqaro iqtisodiy integratsiya masalalari bilan uzviy bog'lanib bormoqda.

Shernayev A.A. (2023) o'zining "Sanoat tarmoqlarining raqamli transformatsiyasi: nazariya va amaliyot" nomli asarida to'qimachilik sanoatining eksportga yo'naltirilgan modelini rivojlantirishda raqamli texnologiyalarni joriy etish zarurligini asoslaydi. Muallif ta'kidlashicha, raqamli ishlab chiqarish tizimlari, onlayn savdo kanallari va raqamli marketing O'zbekiston to'qimachilik tarmog'ining global raqobatbardoshligini oshirishda muhim omildir.

Xodjayev B. (2022) tomonidan olib borilgan "Eksport faoliyatini takomillashtirishda innovatsion yondashuvlar" mavzusidagi ilmiy tadqiqotda, sanoat tarmoqlarining eksport salohiyatini oshirishda xorijiy tajriba, jumladan, Xitoy modeli o'rganilgan. Tadqiqotda eksportni rag'batlantirish, davlat-xususiy sheriklik tizimi va logistika infratuzilmasini rivojlantirishning nazariy asoslari yoritilgan.

To'laganova N. (2021) "O'zbekiston to'qimachilik sanoatining eksport salohiyatini oshirish yo'nalishlari" mavzusida olib borgan tadqiqotida eksport tarkibida tayyor mahsulotlar ulushini oshirish, xalqaro standartlarga muvofiqlikni ta'minlash va Xitoy, Turkiya hamda Yevropa bozorlariga chiqish strategiyalarini ishlab chiqqan. Muallif O'zbekiston to'qimachilik klasterlarining samaradorligi, qo'shma korxonalar faoliyati va xorijiy investitsiyalarni jalb etish omillarini tahlil qilgan.

Yuldashev M. (2020) tomonidan ishlab chiqilgan "O'zbekiston sanoat eksportini diversifikatsiya qilish yo'llari" nomli ilmiy ishda to'qimachilik tarmog'ining eksportdagi ulushi, logistika zanjirlari va tashqi bozorlar bilan integratsiya jarayonlari statistik ma'lumotlar asosida o'rganilgan. Muallif Xitoy bilan iqtisodiy hamkorlikni kuchaytirish orqali eksport geografiyasini kengaytirish zarurligini ta'kidlaydi.

Karimova S. (2023) o'z tadqiqotlarida O'zbekiston to'qimachilik tarmog'ida ekologik toza ("green textile") ishlab chiqarish jarayonlarini yo'lga qo'yish orqali Xitoy va Yevropa bozorlariga sifatli mahsulot eksportini oshirish imkoniyatlarini yoritadi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlarida (2020–2024-yillar) to'qimachilik sohasini modernizatsiya qilish, xomashyodan tayyor mahsulot ishlab chiqarish ulushini oshirish, eksportni qo'llab-quvvatlash va Xitoy bilan investitsion hamkorlikni kengaytirish borasida aniq vazifalar belgilangan. Xususan, "O'zbekiston to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini 2027-yilgacha rivojlantirish strategiyasi" (2022-yil 12-avgustdagi PQ–345-son qaror) bu borada asosiy yo'nalishlarni belgilab bergan.

Mahalliy ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston to'qimachilik sanoatining eksport salohiyatini oshirishda Xitoy tajribasini o'rganish va uni milliy amaliyotga moslashtirish ilmiy jihatdan dolzarbdir.

3 To'laganova N. "O'zbekiston to'qimachilik sanoatining eksport salohiyatini oshirish yo'nalishlari", Toshkent, 2021.

4 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ–4853-son qarori, 2019-yil 12-oktabr.

5 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. — "Xalq so'zi", 2024-yil 21-yanvar.



Xususan, Xitoy bilan qo'shma klasterlar tashkil etish, eksport kreditlari tizimini takomillashtirish, raqamli savdo platformalarini joriy etish va ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarish — o'zbek olimlari tomonidan istiqbolli yo'nalishlar sifatida e'tirof etilmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotning metodologik asosini O'zbekiston Respublikasi Prezidentining sanoat va eksport salohiyatini oshirishga qaratilgan qaror va farmonlari, shuningdek, milliy iqtisodiyotni raqamlashtirish va xalqaro integratsiya jarayonlarini jadallashtirish bo'yicha strategik hujjatlar tashkil etadi. Tadqiqotning ilmiy yondashuvi sistemali, kompleks va qiyosiy tahlil tamoyillariga asoslanadi. Ushbu yondashuv orqali O'zbekiston to'qimachilik sanoatining eksport imkoniyatlari, mavjud muammolar hamda Xitoy tajribasining mos jihatlari o'rganildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida to'qimachilik sanoatini modernizatsiya qilish, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish va eksport salohiyatini oshirish davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Xususan, "O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasi ma'lumotlariga ko'ra, 2017–2024 yillar davomida sohada sanoat ishlab chiqarish hajmi 4 baravar, eksport hajmi esa 3,6 baravar oshgan.

Xitoy Xalq Respublikasi ushbu jarayonda O'zbekistonning eng muhim strategik hamkorlaridan biri sifatida maydonga chiqmoqda. Xitoy bozori O'zbekiston to'qimachilik mahsulotlari uchun nafaqat iste'mol bozori, balki texnologik innovatsiyalar, sarmoya va ilmiy-texnik hamkorlik manbai sifatida ham ahamiyatli.

1-jadval. O'zbekistonning Xitoyga to'qimachilik mahsulotlari eksporti dinamikasi⁶ (2018–2024 yillar)

Yil	Eksport hajmi, mln. AQSH doll.	Umumiy to'qimachilik eksportidagi ulushi, %	O'sish sur'ati, %	Asosiy mahsulot turlari
2018	120,5	6,8	—	Paxta tolasi, ip-kalava
2019	165,2	7,4	37,0	Ip-kalava, gazlama
2020	210,8	8,3	27,6	Gazlama, trikotaj mahsulotlar
2021	276,4	9,7	31,1	Tayyor kiyim-kechak, mato
2022	335,6	10,2	21,4	Trikotaj, tayyor kiyim
2023	402,8	11,5	20,0	Tayyor kiyim, aksessuarlar
2024	458,7	12,3	13,9	Dizaynli kiyim, brend mahsulotlar

Jadval tahlili natijasida quyidagi asosiy xulosalar shakllandi. O'zbekistonning Xitoyga to'qimachilik mahsulotlari eksporti hajmi 2018–2024 yillar davomida 3,8 baravar oshgan. Eng sezilarli o'sish 2020–2022 yillarda kuzatilgan bo'lib, bu davrda Xitoyning pandemiya sharoitida ichki ishlab chiqarishni qisqartirgani va importga ehtiyoj ortgani bilan izohlanadi. Shu bilan birga, O'zbekiston ishlab chiqaruvchilari Xitoyning "Belt and Road Initiative" ("Bir makon — bir yo'l") tashabbusi doirasidagi preferensiyalar va soddalashtirilgan bojxona tartiblaridan samarali foydalana boshladi.

Eksport tarkibi ham sifat jihatidan sezilarli o'zgarishlarga uchradi. Agar 2018 yilda eksportning asosiy qismini paxta tolasi (62%) tashkil etgan bo'lsa, 2024 yilga kelib tayyor kiyim-kechak va trikotaj mahsulotlari ulushi 65% dan oshdi. Bu esa to'qimachilik sanoatining vertikal integratsiyalashuv darajasi ortib borayotganini ko'rsatadi.

Tahliliy ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki:

- Xitoy bilan tuzilgan qo'shma korxonalar soni 2024 yil yakunida 152 taga yetgan, shundan 40 tasi Farg'ona vodiysi hududlarida joylashgan.

- Xitoy kapitali ishtirokidagi korxonalarning o'rtacha eksport hajmi mahalliy korxonalarnikidan 1,7 baravar yuqori.

- Raqamli boshqaruv tizimlari (ERP, AI-texnologiyalar) joriy etilgan korxonalarda mehnat unumdorligi 25–30% ga oshgan.

- "Made in Uzbekistan" brendi ostida Xitoyning ichki elektron savdo platformalarida (Alibaba, JD.com, Taobao) faoliyat yuritayotgan korxona soni 80 tadan ortiq.

Xitoy tajribasining o'zlashtirilishi ayniqsa innovatsion texnologiyalar, dizayn va eksport marketingi sohalarida sezilarli bo'ldi. Xitoy kompaniyalari bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan ilg'or texnologiyalar — ip

6 O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi, "O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

yigirishda avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish liniyalari, rangli bo'yash texnologiyalari va ekologik toza ishlab chiqarish standartlari — O'zbekistonning eksport salohiyatini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqmoqda.

Shuningdek, Xitoyning to'qimachilik sanoati klaster modeli O'zbekistonda ham keng joriy etilmoqda. 2024 yil yakuniga ko'ra, mamlakatda 150 dan ortiq to'qimachilik klasterlari faoliyat yuritmoqda, ularda ishlab chiqarishdan tortib tayyor mahsulotni eksportgacha bo'lgan to'liq zanjir yo'lga qo'yilgan.

Tahlil natijasida aniqlanishicha, O'zbekiston to'qimachilik eksportining barqaror o'sishi uchun quyidagi omillar muhim ahamiyat kasb etadi:

- Xitoy bozorida ekologik va raqamli sertifikatlangan mahsulotlarga talabning ortishi;
- "Bir makon — bir yo'l" tashabbusi doirasida logistika infratuzilmasining yaxshilanishi;
- Xitoy investitsiyalarining to'g'ridan-to'g'ri ishlab chiqarish quvvatlariga yo'naltirilishi;
- O'zbekistonning eksportni sug'urtalash va moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining takomillashuvi.

Umuman olganda, olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonning to'qimachilik mahsulotlari eksportida Xitoy bozori strategik hamkor sifatida nafaqat hajmiy, balki texnologik va innovatsion jihatdan ham yangi imkoniyatlarni taqdim etmoqda. Bu esa sanoatni barqaror rivojlantirish, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish va xalqaro brend sifatida mustahkam o'rin egallash uchun mustahkam asos yaratmoqda.

2-jadval. O'zbekistonning to'qimachilik mahsulotlari eksport tarkibi va Xitoy bozori ulushi⁷ (2018–2024 yillar, % hisobida)

Mahsulot turi	2018	2020	2022	2024	O'zgarish (2018–2024)	Xitoy bozorida ulushi (2024)
Paxta tolasi	62,0	48,5	34,0	22,5	–39,5	15,3
Ip-kalava	21,0	26,3	28,6	29,8	+8,8	25,1
Gazlama	8,5	12,1	14,8	17,6	+9,1	19,7
Tayyor kiyim-kechak	6,4	10,2	18,7	24,5	+18,1	31,4
Trikotaj mahsulotlar	2,1	2,9	3,9	5,6	+3,5	8,5

O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi to'qimachilik sohasidagi hamkorlik oxirgi yillarda izchil o'sish sur'atlarini namoyon qilmoqda. O'zbekistonning Xitoy bozoriga eksporti hajmi 2018–2024-yillar davomida deyarli to'rt baravar ortib, 120,5 million AQSH dollaridan 458,7 million dollarga yetgan. Bu jarayon mamlakatda to'qimachilik sanoatining modernizatsiyasi, texnologik yangilanishi hamda tayyor mahsulot ishlab chiqarish ulushining ortib borayotganidan dalolat beradi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, eksport tarkibida paxta tolasi ulushi yildan-yilga qisqarib bormoqda. 2018-yilda bu ko'rsatkich 62 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib 22,5 foizgacha kamaygan. Aksincha, tayyor kiyim-kechak, trikotaj mahsulotlari va gazlamaning ulushi sezilarli darajada oshgan. Bu o'zgarish to'qimachilik tarmog'ida qo'shimcha qiymat yaratish jarayonlarining chuqurlashgani, ishlab chiqarishning vertikal integratsiyalashuvi amalga oshayotganini anglatadi.

Xitoy bilan iqtisodiy hamkorlikning kengayishi bu o'zgarishlarning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Xitoy kompaniyalari bilan tashkil etilgan qo'shma korxonalar zamonaviy texnologiyalar, avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish tizimlari va raqamli boshqaruv usullarini joriy etish orqali mahsulot sifatini sezilarli yaxshilab berdi. Natijada O'zbekiston to'qimachilik mahsulotlarining eksportbopligi ortdi, xalqaro standartlarga mos ishlab chiqarish tizimlari yo'lga qo'yildi.

2024-yil holatiga ko'ra, Xitoy sarmoyasi ishtirokidagi 150 dan ortiq to'qimachilik korxonalari faoliyat yuritmoqda. Ular ishlab chiqargan mahsulotlar O'zbekistonning umumiy to'qimachilik eksportining qariyb uchdan bir qismini tashkil etmoqda. Ushbu korxonalarda ishlab chiqarish jarayonlari raqamlashtirilgan, energiya tejamon texnologiyalar qo'llanilmoqda va ISO, OEKO-TEX kabi xalqaro sifat sertifikatlari asosida nazorat olib borilmoqda.

Xitoy bozori O'zbekiston uchun strategik jihatdan muhim yo'nalish sifatida ko'riladi. Chunki Xitoyda o'rta sinf iste'molchilarning kengayib borishi, ekologik toza va tabiiy to'qimachilik mahsulotlariga bo'lgan talabning ortishi O'zbekiston ishlab chiqaruvchilari uchun katta imkoniyatlar yaratmoqda. Shu bilan birga, Xitoy ichki bozorining raqamli savdo platformalari — Alibaba, JD.com, Taobao kabi tizimlarda o'zbekistonlik ishlab chiqaruvchilar faol ishtirok eta boshladi. 2024-yil yakuniga ko'ra, "Made in Uzbekistan" belgisi ostida Xitoy onlayn savdo maydonlarida faoliyat yuritayotgan korxona soni 80 tadan oshgan.

7 O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi, "O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasi, WTO va MOFCOM ochiq ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitobi.



Eksport tarkibining o'zgarishi to'qimachilik sanoatining ichki rivojlanish bosqichini ham aks ettiradi. Hozirda gazlama va trikotaj mahsulotlar ishlab chiqarishda Xitoy texnologiyalaridan foydalanish natijasida mahsulotlarning dizayni, rang barqarorligi va chidamliligi sezilarli darajada oshdi. Shu bilan birga, ishlab chiqarish tannarxi 10–15 foizga kamaydi, bu esa xalqaro bozorda raqobatbardoshlikni kuchaytirdi.

Xitoy bilan olib borilayotgan hamkorlikda logistik infratuzilma alohida o'rin tutadi. "Bir makon — bir yo'l" tashabbusi doirasida transport yo'laklarining kengaytirilishi O'zbekiston to'qimachilik mahsulotlarini Xitoyga yetkazib berish muddatini qisqartirdi, logistika xarajatlarini kamaytirdi. Shuningdek, Andijon–Kashgar temir yo'li loyihasi amalga oshirilgach, bu jarayon yanada samarali tus oladi.

Tahlil shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston to'qimachilik sanoatining eksport salohiyatini rivojlantirishda Xitoy bozori nafaqat hajmiy, balki sifat va texnologik jihatdan ham yangi imkoniyatlarni yaratmoqda. Xitoy tajribasidan samarali foydalanish natijasida O'zbekistonda to'qimachilik klasterlari keng rivojlanmoqda, bu esa ishlab chiqarishning to'liq zanjirini — xomashyo yetishtirishdan tortib, tayyor mahsulot eksportigacha — yagona tizimda boshqarish imkonini bermiqda.

O'zbekiston uchun asosiy vazifa — Xitoy bilan hamkorlikni faqat eksport bilan cheklab qo'ymasdan, texnologik transfer, ilmiy tadqiqotlar, brend yaratish va dizayn sohalarida ham chuqurlashtirishdir. Shu yo'l bilan mamlakat o'z to'qimachilik mahsulotlarini nafaqat xomashyo yoki o'rta mahsulot sifatida, balki yuqori qo'shimcha qiymatli tayyor brend sifatida Xitoy bozorida mustahkam o'rnatadi.

Umuman olganda, O'zbekistonning Xitoy bilan to'qimachilik sohasidagi hamkorligi eksport hajmini oshirish bilan birga, sanoatni raqamli transformatsiya qilish, mehnat unumdorligini ko'tarish va xalqaro brendlarga chiqish imkoniyatlarini ham kengaytirayotgan barqaror iqtisodiy jarayon sifatida namoyon bo'lmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, O'zbekiston to'qimachilik mahsulotlari eksportining barqaror o'sishida Xitoy bozori alohida strategik ahamiyat kasb etmoqda. So'nggi yillarda eksport tarkibida xomashyo — ya'ni paxta tolasi ulushining kamayib, tayyor kiyim-kechak, trikotaj va gazlama mahsulotlarining ulushi ortgani sanoatning texnologik va strukturaviy transformatsiyasidan dalolat beradi. Bu jarayon to'qimachilik tarmog'ining ichki ishlab chiqarish zanjirini chuqurlashtirish, qo'shimcha qiymat yaratish va xalqaro raqobatbardoshlikni kuchaytirish imkonini bermiqda.

Xitoy bilan iqtisodiy hamkorlik O'zbekiston to'qimachilik sanoatining modernizatsiyasida muhim o'rin tutmoqda. Xitoy kapitali ishtirokidagi korxonalar, qo'shma ishlab chiqarish loyihalari, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, raqamli boshqaruv tizimlarining kengayishi va xalqaro sifat standartlariga asoslangan ishlab chiqarish jarayonlari eksport hajmining oshishiga va mahsulot sifatining yaxshilanishiga xizmat qilmoqda.

Shuningdek, Xitoy tajribasidan foydalanish O'zbekiston uchun nafaqat iqtisodiy, balki institutsional afzalliklarni ham taqdim etmoqda. Xitoyning klasterlashgan ishlab chiqarish modeli, innovatsion infratuzilmasi va elektron savdo platformalaridagi faol ishtiroki O'zbekiston ishlab chiqaruvchilari uchun yangi bozor imkoniyatlarini ochmoqda.

O'zbekistonning Xitoy bilan hamkorligini yanada chuqurlashtirish quyidagi natijalarga olib kelishi mumkin: tayyor mahsulotlar eksportining o'sishi orqali milliy brendlarni shakllantirish; raqamli marketing va elektron savdoda o'z o'rnini mustahkamlash; ekologik toza, xalqaro sertifikatlangan mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish; logistika va transport yo'laklari samaradorligini oshirish.

Xitoy bozoriga chiqishdagi muvaffaqiyat O'zbekistonning eksport siyosatini diversifikatsiya qilish, sanoatning yuqori qo'shimcha qiymatli segmentlariga kirish va "Made in Uzbekistan" brendi ostida raqobatbardosh mahsulotlar yetkazib beruvchi mamlakat sifatida mustahkam o'rin egallash imkonini beradi.

Umuman olganda, Xitoy tajribasini hisobga olgan holda O'zbekiston to'qimachilik sanoatining eksport strategiyasini yanada takomillashtirish — iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishiga, yangi ish o'rinlari yaratishga va xalqaro savdo tizimida mamlakatning mavqeyini mustahkamlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF–60-son Farmoni, 2022-yil 28-yanvar.
2. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma'lumotlari, 2024-yil.
3. To'laganova N. "O'zbekiston to'qimachilik sanoatining eksport salohiyatini oshirish yo'nalishlari", Toshkent, 2021.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ–4853-son qarori, 2019-yil 12-oktabr.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. — "Xalq so'zi", 2024-yil 21-yanvar.
6. "O'zbekiston Respublikasida 2022–2026 yillarda sanoatni rivojlantirish strategiyasi" — Toshkent: Iqtisodiyot va moliya vazirligi, 2022.



7. Abdullayev, M. R. To'qimachilik sanoatida innovatsion boshqaruv tizimini takomillashtirish. — Toshkent: Iqtisodiyot, 2023.
8. Shernayev, A. A. Xitoy tajribasi asosida O'zbekiston sanoatida kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish yo'nalishlari. — "Iqtisodiyot va ta'lim" jurnali, №3, 2023.
9. Jo'rayev, B. R. O'zbekiston to'qimachilik sanoatini modernizatsiya qilishning iqtisodiy mexanizmlari. — "Fan va innovatsiyalar" jurnali, №4, 2022.
10. Xamidova, N. Sh. Milliy eksport salohiyatini oshirishda to'qimachilik mahsulotlarining roli. — "Iqtisodiyot va jamiyat" jurnali, №2, 2023.
11. Qodirova, Z. M. O'zbekiston–Xitoy iqtisodiy hamkorligi va sanoat integratsiyasi istiqbollari. — Toshkent: TDIU nashriyoti, 2024.
12. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. To'qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish va eksporti bo'yicha statistik ma'lumotlar. — Toshkent, 2024.
13. Ruzmetov, A. R. Eksport geografiyasini diversifikatsiya qilishda Xitoy bozorining ahamiyati. — "O'zbekiston iqtisodiyoti" jurnali, №1, 2023.
14. Xasanov, D. A. Raqamli iqtisodiyot sharoitida to'qimachilik tarmog'ining transformatsiyasi. — "Taraqqiyot strategiyasi" jurnali, №2, 2024.
15. "O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi savdo-iqtisodiy hamkorlik istiqbollari" – O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi axborot byulleteni, 2024.
16. Jo'rabekov, S. T. Xalqaro bozorlarda raqobatbardosh to'qimachilik mahsulotlari eksportini kengaytirish yo'llari. — Toshkent: "Fan va texnologiya", 2023.



Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100